



O'ZBEKISTON VA QIRG'IZISTON O'RTASIDA SUV NIZOLARINI HAL ETISHDA XALQARO HUQUQIY MEXANIZMLAR VA YECHIMLAR

Akmaldinov Yahyobek Xasanboyevich

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi

akmaldinovyahyobek@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20486550>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil

Ma'qullandi: 28-may 2026 yil

Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

KEYWORDS

transchegaraviy suvlar, gidroelektrostansiya (GES), foyda taqsimoti mexanizmi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari hududida xususan, O'zbekiston va Qirg'iziston davlatlari o'rtasidagi transchegaraviy suvlardan foydalanish borasida vujudga kelgan nizoli vaziyatlar tahlil qilinib, bu borada taraflar tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan xalqaro huquqiy tajribalar va mexanizmlar o'rganiladi hamda ularni qo'llashning istiqbollari tahlil qilinadi. Shuningdek, suv resurslardan foydalanish taraflarning mintaqaviy ekologik tizimi qolaversa ularning iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanligidan kelib chiqib, xalqaro tajribalarga asoslangan holda vaziyatni huquqiy jihatdan tartibga solish va O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatdagi pozitsiyasiga asoslangan holda mualliflar tomonidan takliflar bayon etilgan.

Bugungi kunda dunyo bo'ylab 200 ga yaqin davlatlar mavjud bo'lib, ushbu davlatlardan 44 tasi xususan, Markaziy Osiyoda joylashgan O'zbekiston va Qirg'iziston ham dengiz va okeanlarga chiqish imkoniyati mavjud bo'lmagan yopiq davlatlar hisoblanadi [1]. Shunday bo'lsada, mazkur hududda yirik Amudaryo hamda Sirdaryo suv havzalari mavjud bo'lib, hududning 90 foiz (%) qismini suv bilan ta'minlaydi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra Markaziy Osiyo hududida yiliga 127 milliard metr kub suv iste'mol qilinib, mavjud suv iste'molining 80% qismi ushbu davlatlar iqtisodiyotining asosi hisoblangan qishloq xo'jaligi sohasida paxta, g'alla va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun sarflanadi [2]. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari katta miqdordagi gidroenergetika salohiyatiga ham ega bo'lib, suv resurslaridan foydalangan holda elektr energiyasi ishlab chiqarish faoliyatini ham amalga oshiradi. Bundan kelib chiqadiki, mintaqada yuzaga keladigan suv taqchilligi qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi, hudud aholisining ichimlik suvi bilan ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda elektrenegriya ta'minoti masalasida ham jiddiy muammolar keltirib chiqaradi.

Muhokama va natijalar

Transchegaraviy suvlar – ikki yoki undan ortiq davlatlar chegarasini kesib o'tadigan yoki davlatlar o'zaro kesishadigan chegarada joylashgan har qanday yer usti yoki yer osti suvlar hisoblanadi. [3] So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida

transchegaraviy suv havzasi hisoblangan Norin daryosi tomonlarni jiddiy muzokaralar olib borishga undamoqda. Xususan, 2017-2024 yillar davomida mamlakatlar hukumat oliy organlari tomonidan ikki tomonlama o'zaro shartnomalar imzolani, o'zaro kelishuv asosida suv masalalari bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiya tuzishga (2017) hamda, har ikki davlat Andijon (Kampirobod) suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish to'g'risida "O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida o'zbek-qirg'iz Davlat chegarasining alohida uchastkalari to'g'risidagi" shartnomani (Bishkek, 2022-yil 3-noyabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida O'RQ-805 sonli qonun qabul qilinishiga ham erishildi [4]. Ushbu xalqaro shartnoma 13 ta moddadan iborat bo'lib, unga asosan davlatlar o'rtasida quyidagi masalalar yuzasidan o'zaro kelishuvga erishildi: **birinchidan** Kampirobod suv ombori yuzasidan 302,29 kilometrlik davlat chegaralarni qayta belgilashga o'zaro kelishib olindi, **ikkinchidan**, shartnoma shartlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi foydasiga Qirg'iziston Respublikasi tomonidan Kampirobod suv omboriga taalluqli bo'lgan 4957 gektar maydonni berilishi va kompensatsiya tariqasida O'zbekiston Respublikasi hududidan 1019 gektar yaylov maydonlari Qirg'iziston Respublikasi berilishi yuzasidan kelishildi, **uchunchidan** Qirg'iziston Respublikasi Kampirobod suv ombori joylashgan daryo – G'ovasoy daryosining tabiiy oqimiga to'sqinlik qiladigan turli xil gidrotexnik hamda suv inshootlarini qurmaslik, shuningdek, suvning tabiiy ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik majburiyatlarini o'z zimmasiga oldi.

Bundan tashqari Qirg'iziston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumati o'rtasida aynan 2022-yil 3-noyabr sanasida Andijon viloyati hududidagi Kampirobod suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish yuzasidan Qo'shma komissiya tuzilishiga ham erishildi. Ushbu hukumatlar darajasidagi kelishuvda suv omborining xavfsizligini ta'minlash hamda amalga oshirilayotgan hamkorlik masalalarida o'zaro majburiyatlar hamda tomonlarning ularni amalga oshirish tartibi ham kelishib olingan. Ushbu amalga oshirilgan kelishuvlar natijasiga ko'ra hududdagi 8 mingga yaqin fermer xo'jaliklari faoliyatini uzluksiz suv ta'minoti bilan ta'minlashga erishilgan hamda 2.5 million tonnadan ortiq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hamda 500 million dollar qiymatga teng bo'lgan mahsulotlarni eksport qilishi imkoniyat ham yaratilgan¹

Shunga qaramay so'nggi yillarda Qozog'iston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi bilan o'zaro elektr energiyasi evaziga suv almashtirish asosida faoliyat yuritadigan Qirg'iziston davlati uchun bir qator tarnschegaraviy suvlar bilan bog'liq muammolar vujudga kelmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi hududida 60 dan ortiq faoliyat yuritayotgan gidroelektrstansiyalar (GES) mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 30-martdagi "Gidroenergetika sohasini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 104-sonli qaroriga muvofiq (PQ-104) „O'zbekgidroenergo“ AJ tomonidan to'liq moliyalashtiriladigan hamda umumiy quvvati 228 MW (MegaWatt) hisoblangan yana 6 ta gidroelektrstansiyaning qurilish ishlari boshlab yuborilgan. Ushbu loyihaning to'liq yakunlanishi 2028-yil etib belgilangan. Loyiha natijasida O'zbekiston Respublikasi hududidagi 430 mingdan ortiq aholining yashash xonadonlarini elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadi ko'zda tutilgan.


Qirg'iziston Respublikasida 1978-yilda barpo etilgan To'qtag'ul suv ombori 1200 MW elektr energiyasi ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lib, bevosita Norin daryosining quyi

¹ Darakchi.uz 03.13.2022-yil

oqimida joylashgan hamda O'zbekiston tomonidan suv iste'molining ortib borayotganligi tufayli uning normal suv sathi 17.3 milliard metr kubdan 7.7 milliard metr kubga qadar kamayib ketganligi Qirg'iziston hukumatida xavotirga sabab bo'lmoqda. Xususan Qirg'iziston energetika vaziri o'rinbosari Talaybek Baygaziev suv sathi pasayishda davom etsa, elektr o'chirilishi mumkinligi, suv sathi 6.5 milliard kub metrdan pastga tushsa, To'qto'g'ul GESi faoliyati xavf ostida qolishidan aholini ham ogohlantirgan² Shunday bir vaziyatda Qirg'iziston Respublikasi hukumati o'zining energiyaga bo'lgan ehtiyojlariga javoban 2024-yilda davomida 11 ta GES ni ishga tushirishni rejalashgan edi.

Xalqaro tajriba

Xalqaro huquqdan traschegaraviy suvlarga oid nizolarni hal qilishning turli usullari keltirib o'tiladi. Chunonchi, kelishuv yo'li bilan hal qilish, foyda taqsimoti usuli bilan hal qilish, harbiy kuch ishlatib hal qilish, uchinchi mediatsiya tarafining ishtiroki orqali ishni hal qilish shular jumlasidandir. Biroq bir muhim savol tug'iladi. Bulardan eng samaralisi qaysi hisoblanadi? Bu savolga javob topish uchun ushbu usullar bo'yicha birma-bir to'xtalib o'tamiz.



Xalqaro suv nizolarini hal etish mexanizmi statistikasi [9]

Xalqaro tarjiba. Ishni hal qilishda xalqaro huquqning prinsiplaridan foydalanish.

Bizning vaziyatdagi muammoga samarali bo'lgan yechim berish uchun shu paytgacha bir qator davlatlarda bo'lgan tajribalarni o'rganib chiqishimiz darkor. Xususan, Hindiston va Pokiston o'rtasidagi Ind daryosi mojarosi bu soha bo'yicha eng ko'zga tashlanadigan va o'rganilishi mutlaqo zarur bo'lgan ishdir. Ish mazmuni bilan quyida tanishtirib o'tamiz. 1960-yilda Hindiston va Pokiston o'rtasida "Indus daryosi shartnomasi" imzolangan [10]. Shartnomaga ko'ra Pokistonga Ind, Jhelum va Chenab daryolari; Hindistonga esa Ravi, Beas va Sutlej daryolari berilgan. Hindistonning huquqlari sifatida Pokistonga ajratilgan daryolarda gidroelektr stansiyalar qurish mumkinligi, majburiyatlari tarkibida esa ushbu stansiyalarni qurishda Pokiston suvlarini to'sib qo'ymaslik belgilangan. Asosiy muammo shunda ediki, Hindiston Pokistonga tegishli daryolarda GESlar qurib boshlaydi, Pokiston esa ayni qurilish ishlarini shartnomaga zid deb hisoblaydi. Pokiston bunda bir qator e'tirozlarni keltirib o'tadi:

1. GESlar qurilishi Pokistonga kelayotgan suvning kamayishiga olib keladi;
2. Hindiston suvni o'z xohishiga ko'ra nazorat qilishga urinmoqda;

² <https://yuz.uz/uz/news/qirgizistondagi-toqtoqul-suv-omboridagi-suv-hajmi-72-milliard-kub-metrgacha-kamaydi>

3. Hindiston qurilishni boshlashdan oldin Pokiston bilan kelishishi kerak edi.

Pokiston o'z keltirgan e'tirozlariga xalqaro huquqiy asos sifatida BMTning 1997-yildagi xalqaro suv oqimlari bo'yicha BMT konvensiyasini keltiradi. Pokistonning bu da'volariga nisbatan Hindiston quyidagicha javob beradi:

Birinchi, biz shartnomada aytilganidek gidroelektr stansiya quryapmiz va bu 1960-yilgi shartnomaga zid emas; Ikkinchi, biz suvni butunlay to'sib qo'ymaymiz, suvdan faqat energiya ishlab chiqarish uchungina foydalanamiz. Indus daryosi shartnomasining 9-moddasiga ko'ra agarda nizolar kelib chiqsa, ular xalqaro arbitraj sudida hal qilinishi mumkin. Ayni sababdan ish xalqaro arbitraj sudga olib chiqiladi. Biroq sudning qarori deyarli hech qanday keskin yangilik kiritmaydi. U shunchaki Hindistonga suvdan adolatliroq foydalanish bo'yicha talabni qo'yadi [11]. Biroq suv bo'yicha ikki davlat o'rtasidagi muammolar haligacha hal qilinmagan qolmoqda va kelajakda bu nizolar jiddiyroq tus olishi mumkin.

Bizning holatda ham ayni xalqaro tajribadan foydalanish mumkin. Biroq ishning bizdagi holatdan farqli jihati shundaki, O'zbekiston hamda Qirg'iziston Respublikalari o'rtasida ushbu masalani tartibga solish yuzasidan haligacha kelishuvga erishilmagan hamda davlatlar o'rtasida shartnoma ham imzolanmagan. Qolaversa, Pokiston tomonidan keltirilgan juda muhim asosni bizning holatda ham tatbiq etish kerak degan qarash tarafdorimiz. Ya'ni muammoga yechim berishda albatta BMT ning 1997-yildagi Xalqaro suv oqimlaridan foydalanish bo'yicha konvensiyaning prinsiplariga tayanish kerak. Chunonchi, Konvensiyaning 2-qismida umumiy prinsiplar keltirib o'tilgan. 5-moddaga ko'ra adoalti va asosli foydalanish prinsipi keltirib o'tilgan. 6-moddada esa ayni prinsipni amalga tatbiq qilishda qanday faktorlar hisobga olinishi zarurligi keltirib o'tiladi:

- geografik, iqlimiy, ekologik va boshqa shu kabi tabiiy xususiyatlar;
- ijtimoiy va iqtisodiy faktorlar; aholining suvga bog'langanlik darajasi;
- hozirgi va kelajakdagi suvdan foydalanish o'lchami;
- alternativ variantlarning mavjud-mavjud emasligi [12].

Ushbu prinsipni vaziyatimizga bog'laydigan bo'lsak, bunda ikki davlat ham suvdan foydalanishda yuqoridagi har bir faktorni o'rganib chiqishi talab etiladi. Shuningdek, Konvensiyaning 7-moddasiga ko'ra bo'lajak shartnoma tuzishdagi majburiyatlar ikkinchi davlatga nisbatan sezilari darajadagi zararga sabab bo'lishi mumkin emas. Prinsipning mazmuniga ko'ra ushbu prinsip buzilishiga sababchi davlat zarar ko'rgan davlatga kompensatsiya to'lashga majbur bo'ladi. Qolaversa Konvensiyaning 12-moddasiga ko'ra boshqa davlatga bevosita ta'siri bo'ladigan amallarni bajarishdan oldin u albatta xabar qilinishi shartligi keltirib o'tiladi. Ammo juda muhim bir savol tug'iladi. Shu konvensiyada Qirg'iziston va O'zbekiston bormii Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar safida O'zbekiston keltirib o'tilgan, lekin Qirg'izistonni ko'rmaymiz [13]. Xo'sh, unda yuqorida keltirilgan barcha prinsiplar o'z ahamiyatini yo'qotadimi? Albatta yo'q. Garchi Qirg'iziston ushbu hujjatni ratifikatsiya qilmagan bo'lsa-da, Konvensiyadagi prinsiplar xalqaro odat huquqi normasi hisoblanadi. Aynan shuning asosida Qirg'iziston ham bu normalarga amal qilishi kerak degan fikrdamiz. Bu fikrimiz tasdig'i sifatida ham bir emas ikkita sud ishini keltirib o'tamiz:

Xalqaro sudning 1997-yildagi Gabčíkovo-Nagymaros ishi. 1977-yili Dunay daryosi bo'yicha Vengriya va Slovakiya o'rtasida kelishuv imzolanadi. Kelishuvga ko'ra, ikki davlat Gabčíkovo-Nagymaros gidroelektr loyihasini birgalikda amalga oshirishi kerak edi. Biroq Vengriya ekologik xavotirlar sababli loyihani tark etdi va GES qurilmadi. Slovakiya esa

bunga javoban Vengriya bilan kelishmay, daryoni o'z hududiga yo'naltirib yubordi. Natijada o'rtada nizo kelib chiqadi. Nizoni hal qilish maqsadida ular Xalqaro sudga murojaat qiladi. Sud esa bunda ikki davlatni ham aybdor deb topadi, ya'ni Vengriya - oldindan kelishilgan shartnomani buzganligi uchun. Slovakiya esa Vengriya roziligisiz daryoni o'zgartirgani uchun (bu transchegaraviy suv oqimi bo'yicha muvozanatni buzgan. E'tiborga molik jihati shundaki, aynan shu ishda sud garchi davlatlar yuqoridagi konvensiyaga qo'shilgan bo'lmasada, sezilari zarar keltirib bo'lmasligi prinsipini qo'llaydi va Slovakiyaning harakatlari shartnomani bajarishga Vengriyani majburlash uchun qilingan bo'lsa ham noqonuniy deb topadi, chunki Slovakiyatning bu harakati Vengriyaga juda qimmatga tushayotgandi. Miskolk universiteti professori Ferenk Madai ta'kidlaganidek, bu ish suvdan foydalanishga oid nizolarni hal qilishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan va birinchi keys hisoblanadi [14].

2010-yilda Argentina va Urugvay o'rtasidagi Pulp Mills ishi. Bu ishda Urugvay Parana daryosi bo'yida selluloza zavodi qurishini boshlaydi. Argentina buni bilgach zavod daryoni ifloslantirishini aytib ushbu harakatga qarshi chiqadi. O'rtada nizo vujudga keladi va ular Xalqaro sudga da'vo qiladi. Xalqaro sud Urugvayni oldindan Argentina bilan kelishmaganlikda aybdor deb topdi, chunki bu transchegaraviy suv oqimiga ekologik ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda xalqaro huquqda transchegaraviy suvlarga oid nizolar nafaqat bizning davlatda, balki boshqa davlatlarda ham dolzarb bo'lgan muammolardandir. Chunki bu masalada bir emas ikki yoki undan ortiq davlatlarning manfaatlari yotadi. Bu manfaatlarni proporsional va adolatli ravishda mutanosibligini ta'minlash esa o'ziga xos murakkab jarayon hisoblanadi. Maqolada biz O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi transchegaraviy suvga oid nizoning samarali yechimini topish maqsadida tadqiqot mavzusiga daxldor turli xorijiy hal qiluv mexanizmlarini tahlil qildik va bu usullardan kelishuv usuli, uchinchi mediatsiya tarafining ishtiroki orqali ishni hal qilish usuli, foyda taqsimoti usuli har ikki davlat uchun ham foydali bo'ladi degan xulosaga keldik. Qolaversa, muammoga yechim berishda xalqaro miqyosdagi davlatlar taribasi ham tahlil qilindi. Bunda turli davlatlar o'rtasidagi transchegaraviy suvga oid nizolarni atroflicha muhokama qildik va bunday nizolarni hal qilishda bir qator xalqaro huquqiy prinsiplarga rioya qilish zarur degan xulosa keldik. "Adolatli va asosli foydalanish prinsipi", "sezilarli zarar keltirmaslik prinsipi", "ikkinchi davlatni oldindan xabardor qilish prinsipi" shular jumlasidandir. Bu prinsiplar ko'plab nizolarga yechim berishda hal qiluvchi faktorlardan bo'lgan deya olamiz. Shunday ekan, O'zbekiston va Qirg'iziston davlatlari ham yuqorida ta'kidlaganlarimizni amalda qo'llash orqali ikki davlat uchun ham manfaatli bo'lgan kelishuvga erisha olishadi degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. WorldAtlas. (n.d.). Landlocked countries of the world. WorldAtlas. <https://www.worldatlas.com/articles/landlocked-countries-of-the-world.html>
2. European Parliamentary Research Service. (2018). BRIE 625181: Landlocked countries and access to the sea (BRIEFING No. 625181). European Parliament. [https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/BRIE/2018/625181/EPRS_BRI\(2018\)625181_EN](https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/BRIE/2018/625181/EPRS_BRI(2018)625181_EN)
3. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. (n.d.). Qonun hujjati №12328. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-12328>

4. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. (n.d.). Qonun hujjati №5302567. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-5302567>
5. Union of International Associations. (n.d.). International River Basin Organizations Database. UIA Yearbook. <https://database.uia.org/en/international-river-basin-organizations-database>
6. Devex. (n.d.). International Commission for the Congo-Oubangui-Sangha Basin (CICOS). Devex. <https://www.devex.com/organizations/international-commission-for-the-congo-oubangui-sangha-basin-cicos-153489>
7. Margaret O. Wilder, Robert G. Varady, Andrea K. Gerlak, Stephen P. Mumme, Karl W. Flessa, Adriana A. Zuniga-Teran, Christopher A. Scott, Nicolás Pineda Pablos, Sharon B. Megdal, Hydrodiplomacy and adaptive governance at the U.S.-Mexico border: 75 years of tradition and innovation in transboundary water management, *Environmental Science & Policy*, Volume 112, 2020, Pages 189-202, ISSN 1462-9011, <https://doi.org/10.1016/j.envsci.2020.05.013.8>.
8. Sadoff, C.W.; Grey, D. Beyond the river: The benefits of cooperation on international rivers. *Water Policy* 2002, 4, 389–403. [Google Scholar] [CrossRef]
9. Hossen, M. A., Connor, J., & Ahammed, F. (2023). How to Resolve Transboundary River Water Sharing Disputes. *Water*, 15(14), 2630. <https://doi.org/10.3390/w15142630>
10. United Nations. (2019). Navigating peace: Water, peace and security in the transboundary basins of the world (United Nations World Water Development Report 2019). UNESCO World Water Assessment Programme. <https://treasury.unwater.org/doc/Publication/UNTV/Volume%20419/volume-419-1-6692-English.pdf>
11. McCaffrey, S. C. (2001). *The law of international watercourses* (2nd ed.). Oxford University Press. https://opil.ouplaw.com/files/cases/vol_XXXVI-358.pdf
12. United Nations. (1997, May 21). Convention on the Law of the Non-Navigational Uses of International Watercourses. United Nations. https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/8_3_1997.pdf
13. United Nations Treaty Collection. (n.d.). Convention on the Law of the Non-Navigational Uses of International Watercourses. United Nations. https://treaties.un.org/pages/ViewDetails.aspx?src=TREATY&mtdsg_no=XXVII-12&chapter=27&clang=_en
14. Fuyane, B., & Madai, F. (2001). The Hungary-Slovakia Danube River dispute: Implications for sustainable development and equitable utilization of natural resources in international law. *International Journal of Global Environmental Issues*, 1(1). <https://doi.org/10.1504/IJGENVI.2001.000983>